

Bilolova Zamira Baxtiyarovna*“Alfraganus university”, “Psixologiya” kafedrası dotsent v.b.**Psixologiya fanlari falsafa doktori (PhD)*

ORCID ID: 0009-0000-3423-9448

AHOLIGA SIFATLI PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHDA ILMIY ASOSLANGAN PSIXOTERAPIYALARNING O'RNI

Annotatsiya: Maqolada aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning o'rni va ahamiyati ochib berildi, shuningdek, ilmiy asoslangan psixoterapevtik metodlarning ayrimlariga to'liqroq to'htalib o'tildi va ularni qanday amalda qo'llash va aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda foydalanish bo'yicha ma'lumotlar keltirildi. Ushbu maqola – ilmiy psixoterapevtik metodikalar vositasida psixologik xizmatni joriy qilib, har bir mijozga bir xil sifatda yordam ko'rsatishni ta'minlash va aholi orasida psixoterapiyaga bo'lgan ishonchni oshirish maqsadida yozildi.

Kalit so'zlar: Tayanch so'z va tushunchalar: kognitiv-bixevioral terapiya, psixoanalitik terapiya, ratsional-emotiv terapiya, gestalt terapiya.

РОЛЬ НАУЧНО ОБОСНОВАННЫХ МЕТОДОВ ПСИХОТЕРАПИИ В ПРЕДОСТАВЛЕНИИ КАЧЕСТВЕННЫХ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ УСЛУГ НАСЕЛЕНИЮ.

Аннотация: В статье раскрывается роль и важность научно обоснованных методов психотерапии в предоставлении качественных психологических услуг населению, а также более подробно обсуждаются некоторые научно обоснованные психотерапевтические методы и информация о том, как применять их на практике и предоставлять качественные психологические услуги населению. Цель статьи – представить психологические услуги, использующие научные психотерапевтические методы, обеспечить одинаковое качество помощи каждому клиенту и повысить доверие к психотерапии среди населения.

Ключевые слова: Ключевые слова и понятия: когнитивно-поведенческая терапия, психоаналитическая терапия, рационально-эмотивная терапия, гештальт-терапия.

THE ROLE OF SCIENTIFICALLY BASED METHODS OF PSYCHOTHERAPY IN PROVIDING HIGH-QUALITY PSYCHOLOGICAL SERVICES TO THE POPULATION.

Annotation: The article reveals the role and importance of scientifically based psychotherapies in providing quality psychological services to the population, as well as a more detailed discussion of some scientifically based psychotherapeutic methods and information on how to apply them in practice and provide quality psychological services to the population. This article was written with the aim of introducing psychological services using psychotherapeutic methods, ensuring the same quality of assistance to each client, and increasing confidence in psychotherapy among the population.

Key words: Key words and concepts: cognitive-behavioral therapy, psychoanalytic therapy, rational-emotive therapy, gestalt therapy.

Kirish: Ilmiy asoslangan psixoterapiyalar – bu klinik tadqiqotlarga asoslangan, samaradorligi ilmiy ravishda tasdiqlangan davolash usullari bo'lib, aholiga psixologik yordam ko'rsatishda mazkur yondashuvlar insonlarning ruhiy salomatligini samarali va xavfsiz yaxshilash imkonini beradi. Ilmiy asoslangan psixoterapiyalar yordamida ko'rsatiladigan xizmatlar natijasida mijozlar haqiqiy yaxshilanishlarga erishadilar. Bu sifatni oshirish va mablag'lardan oqilona foydalanish imkonini yaratadi. [13]

Mazkur metodikalar vositasida ishlash psixologik xizmatlarda standartlarni joriy qilib, har bir mijozga bir xil sifatda yordam ko'rsatishni ta'minlaydi. Bu ham aholi orasida psixoterapiyaga bo'lgan ishonchni oshiradi. [14]

Ilmiy asoslangan psixoterapiyalar ko'plab metodlarni o'z ichiga olganligi sababli, ularni har bir insonning ehtiyojiga va xususiyatlariga

moslashtirish mumkin. Shu bilan psixologik yordam individual, samarali bo'ladi.

Mavzuning dolzarbligi: Respublikamizda so'nggi yillarda psixologik xizmat ko'rsatishni normativ-xuquqiy jihatdan mustahkamlash, aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatish, psixolog-mutaxassis faoliyatini takomillashtirish va inson qadrini yuksaltirish hamda ulug'lashga yo'naltirilgan strategik vazifalar belgilanib, zarur asoslari yaratilmoqda. Respublikamiz prezidenti Mirziyoev Sh.M. «Xalq bilan muloqot, odamlarning dardu tashvishlari bilan yashash, inson manfaatlarini ta'minlash ... eng ustuvor vazifa bo'lib qoladi...»⁷. deb ta'kidlaganlaridek, aholiga psixologik xizmat sifatini oshirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirishga qaratilgan yangicha nazariy yechimlarni topish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. [1]

Tadqiqotning maqsadi. Aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda

⁷ Мирзиёев Ш.М. «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда

барпо этамиз». – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - Б. 17.

ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning o'zni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Mavzu bo'yicha ilmiy izlanishlarning qisqacha tahlili. Aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning o'zni mavzusida xorijiy va maxalliy olimlarimiz va tadqiqotchilarning ishlari tahlil etildi:

Ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning tushunchasi - bu klinik tadqiqotlar va ilmiy dalillar orqali samaradorligi isbotlangan terapiya uslublari hisoblanadi va unga Kognitiv-xulqiy terapiya, dialektik xulqiy terapiya, psixodinamik terapiya kabi yondashuvlar misoldir (Lambert, 2013). [7]

Ilmiy asoslangan psixoterapiya uslublari - ruhiy kasalliklarda aniq ijobiy o'zgarishlarga olib kelishini ko'rsatgan va bu sifatli yordam kafolatidir. (Cuijpers va boshq., 2019). [8]

Depressiya, havotirlanish, travma kabi holatlarda ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning uslublari asosidagi terapiyalar bemorlarning simptomlarini sezilarli darajada yengillashtiradi (Hofmann, 2017). [9]

Ilmiy asoslangan psixoterapiya uslublari - psixoterapiya muolajalarini standartlashtirilishini, shuningdek, terapevtik xatolik va noaniqliklarning kamayishini ta'minlaydi (APA, 2020). [11]

Ilmiy asoslangan psixoterapiya uslublari yordamida xizmat ko'rsatish - psixologik yordamni kengroq qamrab oladi va uning sifati barcha hududlarda

bir xil bo'lishini ta'minlaydi (Kazdin, 2018). [10]

Kazdin (2018) ta'kidlashicha, ilmiy asoslangan psixoterapiya uslublari keng jamoatchilikka mo'ljallangan psixoterapiya sifatini oshiradi hamda resurslarni samarali taqsimlashga yordam beradi. [10]

- Hofmann va boshq. (2017) analitik tadqiqotlari kognitiv-behavioral terapiya - depressiya va havotirlanishni kamaytirishda samaradorligini ko'rsatgan. [9]

- Cuijpers va boshq. (2019) meta-tahlillar ilmiy asoslangan psixoterapiya uslublari bilan o'tkazilgan terapiyalar natijasida simptomlarning sezilarli darajada kamayishini tasdiqlaydi. [8]

Ilmiy asoslangan psixoterapiyalarga quyidagilar misol bo'ladi (Qahhorboyev Sh., Qahhorboyeva L, 2018)[2]:

- Kognitiv-behavioral terapiya (KBT) Eng ko'p qo'llaniladigan va samarali terapiya turi bo'lib, fikrlash va xatti-harakatlardagi salbiy o'zgarishlarni aniqlash va tuzatishga yo'naltirilgan. Depressiya, xavotir va stress kabi holatlarda yuqori samaradorlik ko'rsatadi.

- Psixoanalitik va psixodinamik terapiyalar. Odamning ongsiz motivlari va bolalikdagi tajribalarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, shaxsiy muammolarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Ko'proq uzoq muddatli terapiya shaklida qo'llanadi.

- Insonparvar (gumanistik) terapiya. Shaxsning o'zini anglashi,

uning shaxsiy o'sishiga yordam berishga qaratilgan bo'lib, o'ziga ishonchni oshirish va ichki resurslarni faollashtirishga ko'maklashadi.

- Yechimga yo'naltirilgan qisqa terapiya. Muammoni tez, amaliy hal qilishga urg'u beradi va mijozning resurslariga asoslanadi, qisqa muddatda natijalarga erishishga yordam beradi.

- Oilaviy va juftlik terapiyalari. Oila va juftlik munosabatlarini yaxshilashga qaratilgan bo'lib, munosabatlardagi konfliktlarni bartaraf etish uchun qat'iy metodologiyaga asoslanadi. (Qahhorboyev Sh., Qahhorboyeva L, 2018) [6]

Maqolaning ilmiy mohiyati aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda yuqoridagi ilmiy asoslangan psixoterapevtik metodlarnig o'ziga xos afzalliklari bor, ular insonning muammo turiga va individual xususiyatlariga qarab tanlanadi. Mazkur yondashuvlar asosida tashkil etilgan psixologik xizmatlar milliy sog'liqni saqlash tizimining yanada samarali bo'lishini ta'minlaydi, profilaktika va tashxis qo'yishda ham yordam beradi. Bu esa psixologik yordam sifatini oshirib, natijaviyligini ta'minlaydi. Shuningdek, ilmiy asoslangan psixoterapevtik uslublarni O'zbekistonda psixologik xizmat ko'rsatish jarayoniga joriy qilish ushbu kun zaruratidir. Shu sababdan, ham maqolada tanlangan muammo o'ziga hos, dolzarb va muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida aholiga sifatli psixologik xizmat

ko'rsatishda ilmiy asoslangan psixoterapevtik metodlardan foydalanish jarayoni tanlab olindi

Tadqiqotda qo'llanilgan usullar: Ilmiy asoslangan psixoterapiya uslublarni o'rganishda horij va mahalliy adabiyotlarni tahlil qilish, ma'lumotlarni qiyosiy taqqoslash va kontent-analiz metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar: Quyida ilmiy asoslangan psixoterapevtik metodlarning ayrimlariga to'liqroq to'htalib o'tiladi va ularni qanday amalda qo'llash, aholiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda foydalanish bo'yicha ma'lumotlar tahlili hamda qiyosiy taqqoslash, kontent-analiz natijalari keltiriladi.

Kognitiv-bixevioral terapiya qanday amalga oshiriladi. Kognitiv-bixevioral terapiya (KBT) – psixologik muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan samarali terapiya usuli bo'lib, u odamning fikrlash, hissiyot va xatti-harakatlari orasidagi bog'liqlikni o'rganadi va o'zgartirishga yordam beradi[13]. Aso-siy bosqichlari:

1. Baholash va maqsad qo'yish. Terapevt bemorning muammolarini, ularning nima sabab bo'lishini va qanday holatlarda yuzaga kelishini aniqlaydi. Shu asosda terapiya maqsadlari belgilab olinadi.

2. Ta'lim va tushuntirish. Bemorga KBT asoslari tushuntiriladi: fikrlar, his-tuyg'ular va xatti-harakatlar bir-biri bilan qanday bog'liq ekanligi.

3. Kognitiv qayta tuzish. Negativ yoki noto'g'ri fikrlar aniqlanib, ularni

mantiqiy va realistik fikrlar bilan almashtirish o'rgatiladi.

4. Bixevioral usullarni qo'llash. Muayyan o'zgarishlarni amalga oshirish uchun xatti-harakatlar modelashtiriladi, masalan, stressga qarshi texnikalar, ijtimoiy ko'nikmalar mashqi.

5. Mashqlar va uy vazifalari. Bemorga terapiya sessiyalari tashqarisida amaliy mashqlar beriladi, bu o'zgarishlarni hayotga tatbiq etishga yordam beradi.

6. Monitoring va natijalarni baholash. Terapiya davomida natijalar kuzatilib, kerak bo'lsa, yondashuvlar o'zgartiriladi.

Terapiya formati: Odatiy ravishda KBT 8-20 sessiya davom etadi, haftada 1-2 marta, individual yoki guruh shaklida olib borilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, kognitiv-bixevioral terapiya aktiv ishtirokni va o'rgangan ko'nikmalarni hayotga tatbiq etishni talab qiluvchi strukturalangan, maqsadga yo'naltirilgan jarayondir. [19,20]

Psixoanalitik terapiya qanday amalga oshiriladi. Psixoanalitik terapiya - Zigmund Frayd tomonidan ishlab chiqilgan va odamning ongosti jarayonlarini o'rganishga asoslangan chuqur psixoterapiya usuli. Bu terapiya bemorning ong ostida yashiringan his-tuyg'ulari, xotiralari va ichki qarama-qarshiliklarini aniqlash va tushunishga qaratilgan. Asosiy bosqichlari:

1. Muloqot va bemorni tayyorlash. Terapevt bemor bilan ishonchli munosabat o'rnatadi. Bemorni ochiq

gapirishga, o'z his-tuyg'ularini va orzularini ifoda etishga undaydi.

2. Ongostini o'rganish. Bemor erkin assotsiatsiya (istagan fikr va his-tuyg'ularni erkin aytish), tushlarning tahlili va xatolar (lapsuslar) orqali o'z ichki dunyosini ochib beradi. Terapevt bu dalillar asosida bemorning ongosti motivlari va konfliktlarini aniqlaydi.

3. Transferensiya va kontrtransferensiya. Bemor terapevtga bo'lgan hissiyotlarini (ko'pincha bolalikdan kelib chiqqan tuyg'ular) ko'rsatadi — bu transferensiya deyiladi. Terapevt esa o'zining reaksiyalarini kuzatib, bemorning psixikasini yanada chuqurroq tushunishga harakat qiladi.

4. Tahlil va tushuntirish. Terapevt bemorning ong ostidagi his-tuyg'ularini, fikrlarini ilmiy asosda tushuntirib, ular orasidagi bog'liqliklarni ko'rsatadi. Bu orqali bemor o'z xulq-atvorining sabablarini anglab yetadi.

5. Inkorni olib tashlash va ruhiy og'riqlarni yengillashtirish. Bemor o'zidagi irratsional tuyg'ular, qo'rquvlar va qarama-qarshiliklarni anglab, ularni ozod qilishi mumkin.

6. Muntazam sessiyalar. Psixoanalitik terapiya odatda uzoq muddatli bo'lib, haftasiga bir-ikki marta, ko'pincha ko'p oylar yoki yillar davom etadi.

Xulosa qilib aytganda, psixoanalitik terapiya insonning bilinmaydigan ruhiy jarayonlarini chuqur o'rganishga asoslangan usul bo'lib, uning maqsadi ongostidagi muammolarni aniqlash, tahlil qilish va ularni bartaraf

etish orqali mijozning ruhiy sog'lig'ini yaxshilashdir.

Ratsional-Emotiv terapiya qanday amalga oshiriladi. Ratsional-Emotiv xulq-atvor terapiyasi (REBT) – psixoterapiyaning samarali yo'li bo'lib, uning maqsadi insonning noto'g'ri, irratsional fikrlarini aniqlash, ularga qarshi kurashish va o'rnini mantiqiy, ratsional fikrlar bilan to'ldirishdir. Asosiy bosqichlari:

1. Muammoni aniqlash. Terapevt bemorning asosiy qiyinchiliklari, noqulay his-tuyg'ulari va ularga olib kelayotgan fikrlarini tinglaydi.

2. Irratsional e'tiqodlarni aniqlash. Terapevt bemorning qaysi fikr va e'tiqodlari mantiqsiz, haddan tashqari yoki zararli ekanini birgalikda aniqlaydi. Masalan, «Men har doim mukammal bo'lishim kerak», «Agar kimdir menga yoqtirmasa, demak men muammolim».

3. E'tiqodlarni sinovdan o'tkazish. Terapevt mijozni o'z irratsional fikrlarini tanqidiy tahlil qilishga va ular uchun dalillar topishga chaqiradi, shunda noto'g'ri e'tiqodlar so'roq ostiga olinadi.

4. Yangi, ratsional fikrlarni shakllantirish. Terapiya davomida mijoz irratsional e'tiqodlarni real, mantiqiy va sog'lom fikrlar bilan almashtiradi. Bu yangi fikrlar mijozga muammo bilan maslahatlashish, stressni kamaytirish va xotirjamlikni tiklashda yordam beradi.

5. Qayta o'rganish va mustahkamlash. Terapevt va bemor yangi fikrlarni amalda qo'llashga harakat

qiladi, uzoq muddatli ijobiy o'zgarishlar uchun kundalik hayotda mashq qiladi.

Usullari va texnikalari:

- Dialog va mantiqiy bahs – mijozning fikrlarini muhokama qilish va tanqidiy fikrlashni o'stirish.

- Vaziyatni qayta baholash – voqealarga boshqacha, real qarashni o'rgatish.

- Vaziyatga asoslangan mashqlar – irratsional fikrlarni aniqlash va unga munosabatni o'zgartirish.

- Kognitiv va yashash tarzi o'zgarishlari – mijozning fikrlash va xulq-atvor usullarini yangilash.

Xulosa qilib aytganda, ratsional-emotiv terapiya insonning o'z fikrlarini anglab etishi, irratsional qarashlarni tan olishi hamda ularni ratsional kuchli e'tiqodlar bilan almashtirish orqali ruhiy holatini yaxshilashga qaratilgan faol va interaktiv jarayondir.

Gestalt terapiya qanday amalga oshiriladi. Gestalt terapiya – shaxsning hozirgi paytdagi his-tuyg'ulari, fikrlari va tajribasiga e'tibor qaratadigan psixoterapiya usuli bo'lib, o'zi bilan to'liq uyg'unlik va o'z-o'zini anglashga yordam beradi. Asosiy bosqichlari:

1. Hozirgi vaqtga e'tibor berish. Terapevt bemorni hozirgi paytdagi holatiga, his-tuyg'ulariga va atrofdagi muhitga to'liq diqqat bilan qarashga chaqiradi. O'tgan yoki kelajak haqida emas, aynan hozirgi vaziyatga e'tibor qaratiladi.

2. Tajriba va hissiyotlarni anglash. Mijoz o'zi bilan yuzma-yuz kelib, ichki holatini ochib beradi: nimani his qilayotganini, fikrlari qanday ekanligini,

jismoniy sezgilari va tanasidagi o'zgarishlarni his qiladi.

3. Dialog va rolli o'yinlar. Ba'zida terapevt mijoz bilan ichki ziddiyatlarni ochish uchun rolli o'yinlardan foydalanadi. Misol uchun, o'zining turli tomonlari (ichki ovozlari) o'rtasida suhbat tashkil etiladi.

4. "Men" bayonotini ishlatish. Mijoz o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini "Men his qilyapman...", "Men o'ylayman..." shaklida aniq ifodalaydi, bu o'zini anglashni kuchaytiradi.

5. Chegaralarni aniqlash. Terapevt mijozga o'z chegaralarini anglash va boshqalar bilan sog'lom aloqalar o'rnatishga yordam beradi.

6. Jismoniy harakat va personallik uyg'unligi. Terapiya davomida tana harakatlari ham e'tiborga olinadi, tana va ongi uyg'unlashishi uchun mashqlar qo'llanadi.

Terapiya shakli va davomiyligi - odatiy ravishda sessiyalar haftada bir marta bo'lib, individual yoki guruh shaklida o'tadi. Davomiyligi muammoning murakkabligiga qarab o'zgaradi.

Xulosa qilib aytganda, Gestalt terapiya - mijozning o'zini hozirgi lahza to'liq anglashiga, ichki nizolarni hal qilishiga va shaxsiy o'sishga yordam beruvchi tajribaga asoslangan faol jarayondir.

Xulosa va takliflar: O'zbekiston aholisiga sifatli psixologik xizmat ko'rsatishda ilmiy asoslangan psixoterapiyalarning roli juda katta bo'lib, ular yordamida xizmat sifati oshadi, natijalarning ishonchliligi ta'minlanadi va ruhiy salomatlikni yaxshilashga qaratilgan samarali yondashuvlar joriy etiladi. Bu esa aholining umumiy farovonligini ta'minlashda muhim omildir.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Мирзиёев Ш.М. «Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз». – Тошкент: Ўзбекистон, 2016. - Б. 17
2. Qahhorboyev Sh., Qahhorboyeva L. – Psixologik yordam va psixoterapiya asoslari (O'zbekiston, 2018).
3. Tursunov S. – Psixodiagnostika va psixoterapiya (2016).
4. Nishanova Z.T., Alimova G.K. "Psixologik xizmat. Psixokorreksiya":T.: "Ijod-Press", 2019. – 512 b.
5. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat: Darslik. – T.: "Navro'z" nashriyoti, 2018. – 344 b
6. Bilolova Z.B. Oila psixologiyasi. (Ilmiy-nazariy ma'lumotlar, oila psixodiagnostikasi va psixoterapiyasi). O'quv qo'llanma. T: "Peges Print" nashriyoti, T-2025y.456b
7. Lambert, M.J. (2013). Bergan and Lambert's Handbook of Psychotherapy and Behavior Change.
8. Cuijpers, P., Karyotaki, E., et al. (2019). The effects of psychotherapies for depression. World Psychiatry.

9. Hofmann, S.G., Asnaani, A., Vonk, I.J., Sawyer, A.T., & Fang, A. (2017). The efficacy of cognitive behavioral therapy: A review of meta-analyses. *Cognitive Therapy Research*.
10. Kazdin, A.E. (2018). *Evidence-Based Psychotherapies: Resources for Professionals*.
11. American Psychological Association (APA). (2020). *Clinical Practice Guidelines for Psychological Services*.
12. Билолова, З. Б. (2023). Турмуш куриш ёшидаги қизларни оналикка тайёрлашнинг ижтимоий-психологик муаммолари. *Academic research in educational sciences*, 4(TMA Conference), 886-893.
13. Bilolova, Z. B. (2026). The role of cognitive psychotherapy in stabilizing marital relationships and providing psychological services to couples. *World Bulletin of Education and Learning*, 2(2), 83-88.
14. Bilolova, Z., & Allaberganova, N. (2024). Oilaviy ruhiy zo'riqish holatlarida psixologik xizmatni tashkil etish yo'nalishlari. *Journal of Pedagogical and Psychological Studies*, 2(2), 21-27.
15. Baxtiyarovna, Z. B. (2025). Inson xotirasining individualligi: shaxsiy va ijtimoiy omillar ta'siri. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 3(32), 40-42.
16. Bilolova, Z. Yoshlarni Ota-onalik Mas'uliyatiga Tayyorlash-Psixologiyaning Dolzarb Muammosi Sifatida. *Maktabgacha va Maktab Ta'limi Jurnal*, 675462.
17. Otajonova, D. R., & Bilolova, Z. B. (2024). Sog'lom bola rivojlanishida raqamli autizm muammosining ijtimoiy-psixologik masalalari?. *Inter education & global study*, (9 (1)), 506-513.
18. Baxtiyarovna, Z. B. (2025). Yangi o'zbekiston sharoitida oilaviy tarbiya qadriyatlarining o'zgarishi. *Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalar*, 2(2), 60-62.
19. Ravshanovna, R. M. T. (2026). Noto'liq oila va undagi ijtimoiy-psixologik muammolarning yuzaga kelishi. *Media va sun'iy intellekt integratsiyasining ilmiy asoslari va zamonaviy muammolari*, 1(1), 356-358.
20. Rustamova, M. T. R. (2026). Noto'liq oiladagi ona va farzandlar o'rtasida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik munosabatlarning ilmiy talqini. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 6(20), 450-452.
23. Xujayev, M. I. (2018). THE COVERAGE OF THE PROBLEM OF NATIONALITY AND ITS ROLE ON THE PRESENT DAY IN AHMAD ZAKI VALADI'S WORK. *Мировая наука*, (6 (15)), 61-63.
24. Хужаев, М. И. (2018). АХМАД ЗАКИ ВАЛИДИЙНИНГ ДИНИЙ-ФАЛСАФИЙ МЕРОСИННИНГ ИЛДИЗЛАРИ. In *Инновационные подходы в современной науке* (pp. 177-182).

25. Khujaev, M. (2024). AHMED ZAKI: ON THE IDEAS OF THE PHILOSOPHY OF HISTORY. *Экономика и социум*, (1 (116)), 235-239.
26. Davlyatovna, K. G. (2024). Characteristics of the process of biological growth and development of the child. *Central Asian Journal of Education and Innovation*, 3(5-3), 188-192.

